

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi Toshkent
shahar boshqarmasi Yunusobod tuman Davlat
xizmatlari markazi tomonidan

2019 yil “__” _____da
_____-raqam bilan

“RO'YXATGA OLINGAN”

M.O'.

“O'zMED-lizing” aksiyadorlik jamiyati
ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyasi
aksiyadorlarining

2019 yil ____ iyundagi
Umumiy yig'ilishi tomonidan

“TASDIQLANGAN”

M.O'.

**“O'zMED-lizing” aksiyadorlik jamiyati
ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyasining**

USTAVI

(YANGI TAHRIRDA)

\

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. “O’zMED-lizing” aksiyadorlik jamiyati ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyasi (bundan buyon “Kompaniya” deb yuritiladi) O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 2 oktyabrdagi “Respublika tibbiyot muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-700-son qaroriga muvofiq O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 13 noyabrdagi 236-sonli “O’zMED-lizing” ochiq aksiyadorlik jamiyati ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyasini tashkil etish to’g’risida”gi qarori bilan tashkil etilgan.

1.2. Ushbu Ustav O’zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

1.3. Kompaniyaning to’liq firma nomi:

Davlat tilida:

kirill alifbosida – “O’zMED-lizing” aksiyadorlik jamiyati ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyasi;

lotin alifbosida – “UzMED-lizing” aksiyadorlik jamiyati ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyasi.

Rus tilida:

специализированная лизинговая компания акционерное общество «УзМЕД-лизинг».

1.4. Kompaniyaning qisqartirilgan firma nomi:

Davlat tilida:

kirill alifbosida – “O’zMED-lizing” AJ ILK;

lotin alifbosida – “UzMED-lizing” AJ ILK.

Rus tilida:

СЛК АО «УзМЕД-лизинг».

1.5. Kompaniya faoliyat ko’rsatish muddati cheklanmagan muddatga tashkil etilgan.

1.6. Kompaniya O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan yuridik shaxs hisoblanadi, o’zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga, shu jumladan o’zining ustav kapitaliga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo’ladi, o’z nomidan mulkiy va shaxsiy-nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo’lishi mumkin.

1.7. Kompaniya o’zining tashkiliy-huquqiy shakli ko’rsatilgan to’liq firma nomiga va qisqartirilgan firma nomiga ega bo’ladi. Kompaniya o’zining firma nomi davlat tilida to’liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko’rsatilgan yumaloq muhrga ega bo’lishi lozim (muhurda bir vaqtning o’zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko’rsatilishi mumkin), o’z nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o’z timsoliga, shuningdek boshqa o’z belgi-alomatlariga ega bo’lishga haqlidir.

1.8. Kompaniya u bilan aloqa amalga oshiriladigan pochta manziliga va elektron pochta manziliga ega bo’lishi lozim. Kompaniya o’zining pochta manzili va elektron pochta manzili o’zgartirilishi to’g’risida yuridik shaxslarni davlat ro’yxatidan o’tkazuvchi organlarni yozma bildirish yuborish yo’li bilan, aksiyadorlarni esa ommaviy axborot vositalarida e’lon berish yo’li bilan xabardor etishi shart.

1.9. Kompaniya o’z majburiyatlari yuzasidan o’ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo’ladi.

Aksiyadorlar Kompaniyaning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo’lmaydi va uning faoliyati bilan bog’liq zararlarning o’rnini o’zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o’z zimmasiga oladi.

1.10. Aksiyalarning haqini to’liq to’lamagan aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o’zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to’lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo’ladi.

1.11. Kompaniya o’z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo’lmaydi.

1.12. Kompaniyaning mol-mulki unga mulk huquqi asosida tegishli bo’lib, Kompaniya aksiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag’lar, asosiy fondlar va aylanma mablag’lar, ko’char va ko’chmas mulklar, qimmatli qog’ozlar, olingan daromad, qonun hujjatlari bilan ta’qiqlanmagan boshqa asoslarda olingan boshqa mol-mulklardan tashkil topadi.

1.13. Kompaniya qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan aksiyadorlik jamiyat yoki ma'suliyati cheklangan jamiyat shakldagi sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarni tashkil etishga haqlidir.

1.14. Kompaniya o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida filiallar tashkil etishi hamda ularga qonun hujjatlari va Kompaniya Ustavida belgilangan doirada va tartibda vakolatlar berishi mumkin.

1.15. Kompaniya O'zbekiston Respublikasidan tashqarida filiallar tashkil etishi va vakolatxonalar ochishi hamda ularga qonun hujjatlari va Kompaniya Ustavida belgilangan doirada va tartibda vakolatlar berishi mumkin. Kompaniya filial va vakolatxonalarini mol-mulk bilan ta'minlaydi.

1.16. Kompaniyaning filiallari va vakolatxonalari yuridik shaxs hisoblanmaydi va Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizomlar asosida ish ko'radi.

1.17. Kompaniya o'zining yuridik manzilidan tashqari O'zbekiston Respublikasi hududida asosiy Kompaniya faoliyatini amalga oshirmaydigan ma'muriy idoralarni tashkil etishga haqli.

1.18. Kompaniya korxonalar, tashkilotlar va boshqa tijorat tuzilmalarini tashkil etishda va ularning xo'jalik faoliyatida, shu jumladan xolding asosida ham o'z mablag'lari bilan, shu jumladan ulush qo'shish asosida qatnashish huquqiga ega.

1.19. Kompaniya o'z faoliyatini muvofiqlashtirish, o'z manfaatlarini ifoda etish va himoya qilish hamda birgalikdagi dasturlarni amalga oshirish maqsadida uyushmalar (ittifoqlar) va o'zga birlashmalarda qatnashishi mumkin.

1.20. Kompaniyaning joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100099, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Chinobod ko'chasi, 57-uy, 7-xona, info@uml.uz.

II. KOMPANIYANING FAOLIYAT SOHASI (ASOSIY YO'NALISHLARI) VA MAQSADLARI

2.1. Kompaniyani tashkil etishdan asosiy maqsad Kompaniyaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan aksiyadorlar manfaatlarini uchun foyda olishdir.

2.2. Quyidagilar Kompaniya faoliyatining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari hisoblanadi:

tibbiyot muassasalarini zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalarini bilan jihozlash, O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimida lizing munosabatlarini rivojlantirish;

o'z mablag'lari hisobiga, shuningdek mamlakatimiz va chet el banklari kreditlari va qarzlarni jalb etish yo'li bilan zamonaviy yuqori texnologiyali tibbiyot asbob-uskunalarini, ular uchun ehtiyot qismlar, anjomlar va maxsus transport (keyingi o'rinlarda "tibbiyot asbob-uskunalarini" deb yuritiladi) xarid qilish;

tibbiyot asbob-uskunalarini shartnoma asosida lizingga va uzoq muddatli ijaraga berish, shuningdek ularni tibbiyot muassasalariga sotish.

2.3. Maxsus ruxsatnoma (lisenziya) talab qilinadigan faoliyat turlari tegishli ruxsatnoma (lisenziya) olingandan so'ng amalga oshiriladi.

Kompaniya yuqorida ko'rsatilgan faoliyat turlaridan tashqari o'ziga qarashli bo'linmalar, kompaniyalar ishini yaxshilash hamda ularni qo'llab-quvvatlash uchun qonunchilikka zid kelmaydigan boshqa ishlarni ham bajarishi mumkin.

III. KOMPANIYA USTAV KAPITALINING MIQDORI, UNI KO'PAYTIRISH YOKI KAMAYTIRISH TARTIBI

3.1. Kompaniyaning ustav kapitali aksiyadorlar sotib olgan Kompaniya aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi.

3.2. Kompaniyaning ustav kapitali 2 044 500 000 (ikki milliard qirq to'rt million besh yuz ming) so'mni tashkil qilib, u har birining nominal qiymati 1 363 (bir ming uch yuz oltinchi uch) so'm bo'lgan 1 500 000 (bir million besh yuz ming) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz aksiyalarga bo'lingan.

Davlat ulushi – 272 600 000 (ikki yuz etmish ikki million olti yuz ming) so'mni, ya'ni ustav kapitalining -13,33 foizini tashkil qiladi.

a) Kompaniyaning ustav kapitalini ko'paytirish

3.3. Kompaniyaning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

3.4. Kompaniya ustav kapitalini ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda kompaniya ustavida ko'rsatilgan, e'lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga kamaytirilishi kerak.

Kompaniyaning ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi va Kompaniya Ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar Kompaniya Kuzatuv Kengashi tomonidan qabul qilinadi.

Kompaniyaning ustav kapitalini ko'paytirish jalb qilingan investisiyalar, jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Kompaniyaning ustav kapitalini uning o'z kapitali hisobidan ko'paytirishda qo'shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Kompaniyaning ustav kapitali ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, kompaniyaning ustav kapitalini ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq va yopiq obuna usullari bilan joylashtiriladi.

Qo'shimcha chiqarilgan aksiyalar bozor qiymatida, lekin nominal qiymatidan kam bo'lmagan qiymatda joylashtiriladi.

Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan, aksiyadorlar o'rtasida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Kompaniyaning ustav kapitali ko'paytirilayotganda kompaniyaning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

3.5. Kompaniya ustav kapitalini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalari miqdori - nominal qiymati 1 363 so'm bo'lgan 10 000 000 (o'n million) dona egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz aksiyalardan iborat.

b) Kompaniyaning Ustav kapitalini kamaytirish

3.6. Kompaniyaning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini yoki ularning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini Kompaniyaning o'zi keyinchalik muomaladan chiqarish sharti bilan sotib olishi yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

3.7. Kompaniyaning ustav kapitalini aksiyalarning bir qismini sotib olish va muomaladan chiqarish orqali kamaytirishga haqli.

3.8. Agar ustav kapitalini kamaytirish natijasida uning miqdori ustavga kiritilgan tegishli o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazish kuni belgilanadigan ustav kapitalining eng kam miqdoridan qonun hujjatlarida belgilangan miqdoridan kamayib ketadigan bo'lsa, Kompaniya ustav kapitalini kamaytirishga haqli emas.

3.9. Ustav kapitalini kamaytirish va Kompaniya ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

3.10. Ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan vaqtda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav kapitalini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

IV. KOMPANIYA AKSIYALARI TURLARI, NOMINAL QIYMATI VA HAR XIL TURDAGI AKSIYALARNING NISBATI

4.1. Kompaniyaning aksiyalari oddiy egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar

hisoblanadi. Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik yoki jismoniy shaxs aksiyaning egasi - Kompaniya aksiyadori deb e'tirof etiladi.

4.2. Kompaniya nominal qiymati 1 363 so'm bo'lgan oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz aksiyalarni chiqarish va ularni joylashtirishga haqlidir.

4.3. Kompaniyaning oddiy aksiyalari ovoz beruvchi bo'lib, ularning egasiga dividendlar olish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida va Kompaniyani boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.

Kompaniya qonun hujjatlarida nazarda tutilgan obligasiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirishga haqli.

V. KOMPANIYA AKSIYALARINI JOYLASHTIRISH TARTIBI VA SHARTLARI

5.1. Kompaniyaning qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish to'g'risidagi qarorida chiqarilayotgan qo'shimcha aksiyalarning umumiy qiymati, soni, turi, nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli (ommaviy yoki xususiy yo'sinda), muddati, narxi, aksiyalar uchun to'lov tartibi, amalga oshmagan deb topish usuli va amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar to'lovi uchun qabul qilingan to'lov vositalarini qaytarish tartibi belgilanadi.

5.2. Kompaniya qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish to'g'risidagi qarorda chiqarilayotgan aksiyalarni joylashtirish tartibini, ya'ni aksiyalar joylashtirilishining borishida fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzilishining tartibi va shartlari, joylashtirish amalga oshiriladigan (birja yoki birjadan tashqari) bozorlarni belgilaydi.

5.3. Kompaniya qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish to'g'risidagi qarorda chiqarilayotgan aksiyalarni joylashtirish usuli (ommaviy yoki xususiy yo'sinda) belgilanadi.

5.4. Kompaniya tomonidan aksiyalarni joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak.

5.5. Qo'shimcha aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquq ko'zda tutilgan taqdirda, Kompaniya qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish to'g'risidagi qarorda joylashtirilayotgan aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqlarga ega bo'lgan aksiyadorlar uchun Kompaniyaning qo'shimcha aksiyalarini joylashtirish bahosi belgilanadi.

5.6. Kompaniyaning aksiyalariga haq to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pul va to'lovning boshqa vositalari, mol-mulk shuningdek pulda baholanadigan huquqlar (shu jumladan ashyoviy huquqlar) vositasida amalga oshiriladi.

5.7. Kompaniya tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli olish huquqiga ega bo'lishi mumkin. Aksiyador, shu jumladan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qarshi ovoz bergan yoxud unda ishtirok etmagan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga (bundan buyon matnda imtiyozli huquq deb yuritiladi) ega.

Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan shaxslarning ro'yxati qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi kompaniya aksiyadorlari reestrining ma'lumotlari asosida tuziladi. Imtiyozli huquq amalga oshirilgan taqdirda, aksiyadorlar aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning faqat butun miqdorini olishi mumkin.

5.8. Aksiyalarni imtiyozli sotib olish huquqini qo'llamaslik to'g'risidagi qaror aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorida belgilangan muddat davomida, ammo bunday qaror qabul qilingan paytda e'tiboran ko'pi bilan bir yil davomida amal qiladi.

5.9. Imtiyozli huquqning amal qilish muddati bildirish e'lon qilingan paytdan e'tiboran o'n kundan kam va o'ttiz kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni olishi to'g'risida o'zining ismi-sharifi (nomi) va yashash joyi (joylashgan yeri), o'zi oladigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning soni ko'rsatilgan yozma shakldagi arizani va haq to'laganlik to'g'risidagi hujjatni jamiyatga yuborish orqali o'z imtiyozli huquqini to'liq yoki qisman amalga oshirishga haqli. Bunday ariza mazkur imtiyozli huquqning

amal qilish muddati ichida jamiyatga taqdim etilishi kerak.

VI. KOMPANIYA AKSIYADORLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Kompaniya aksiyadorlarining huquqlari:

- kompaniyaning aksiyadorlari reestriga kiritilish;
- o'zi haqida depozitariyidagi depo hisob varag'idan ko'chirma olish;
- kompaniya foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- kompaniya tugatilgan takdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- kompaniyani boshqarishda ishtirok etish;
- kompaniyaning Ustaviga muvofiq kompaniyaning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va to'g'ri axborot olish;
- olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari va emitentlarning uquvsiz yoki g'arazli xatti-harakatlari tufayli ko'rgan zararining to'lanishini talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalar va boshqa jamoat tashkilotlariga birlashish;
- qimmatli qog'ozlar sotib olish vaqtida zarar ko'rish va (yoki) foydaning bir qismini yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchilikni sug'urtalash.

Aksiyadorlar mazkur Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'ladilar.

6.2. Har bir oddiy aksiya egasi hisoblangan aksiyadorga bir xil huquqlarni beradi.

6.3. Oddiy egasi yozilgan aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlar ushbu Ustavga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek, dividendlar olish, Kompaniya tugatilgan taqdirda esa, Kompaniya mol-mulkining bir qismini olish huquqiga egadir.

6.4. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda depozitariy tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularning oluvchisiga ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi.

6.5. Ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar:

- kompaniyani qayta tashkil etish to'g'risida;
- joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirish haqida;
- qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda Kompaniya tomonidan mol-mulkni olish yoki boshqa shaxsga berish bilan bog'liq yirik bitim (bundan buyon matnda yirik bitim deb yuritiladi) tuzish to'g'risida;

kompaniyaning ustaviga ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklovchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi ustavni tasdiqlash to'g'risida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qarorlar qabul qilishda, agar ular qarshi ovoz bergan bo'lsa yoxud ovoz berishda uzrli sabablarga ko'ra ishtirok etmagan bo'lsa, o'zlariga tegishli aksiyalarning hammasi yoki bir qismi kompaniya tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilishga haqlidir.

6.6. Kompaniya aksiyadorlari quyidagi majburiyatlarga ega:

- kompaniyaning ustav qoidalariga va ustavda ko'rsatilgan tartibda, miqdorda va usulda hissa qo'shish (aksiya haqini to'lash);
- kompaniya faoliyati to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlarni tashkil qiluvchi sirlarni fosh qilmaslik.

6.7. Aksiyadorlar mazkur ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga

ham ega bo'ladilar.

VII. KOMPANIYA DAROMADI (FOYDA) NI, DIVIDENDLARNI TAQSIMLASH VA ZARARNI QOPLASH TARTIBI

7.1. Dividend foydaning soliqlar va majburiy to'lovlar to'laganidan, qayta investisiya amalga oshirilganidan so'ng Kompaniya ixtiyorida qoladigan, aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanishi kerak bo'lgan qismidir.

7.2. Kompaniya aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

7.3. Kompaniya aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qaroriga binoan dividend pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari bilan to'lanishi mumkin. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

7.4. Kompaniya yilning har choragida, har yarim yilda yoki yiliga bir marta joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir.

7.5. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar (yilning har bir choragi, yarim yilligi, yilligi bo'yicha) to'lash, dividendning miqdori hamda uni to'lash shakli to'g'risidagi qaror Kuzatuv kengashining tavsiyasi asosida aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Kuzatuv kengashi tavsiya etgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo'yicha dividendlar to'lamaslik to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

7.6. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugaydigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

7.7. Yilning har bir choragi, yarim yilligi bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risidagi qaror tegishli davr tugaganidan so'ng ikki oy ichida qabul qilinishi mumkin.

7.8. Agar dividendlar to'lash oqibatida Kompaniyaning moliya-xo'jalik ahvoli jiddiy tarzda yomonlashadigan bo'lsa, dividendlar to'lash ta'qiqlanadi.

7.9. Dividendlar Kompaniya tasarrufida qoladigan sof foydadan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

7.10. Dividendlar to'lash muddati va tartibi Kompaniya aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi. Dividendlar to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 60 kundan kech bo'lmasligi lozim.

7.11. Dividendlarni e'lon qilish to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Kompaniya aksiyadorlari reestrda qayd etilgan aksiyadorlar dividend olish huquqiga ega.

7.12. Kompaniya quyidagi hollarda dividendlarni to'lash haqida qaror qabul qilishga, hamda dividendlar to'lashga haqli emas:

- ustav kapitalini hammasi to'lab bo'linguncha;
- agar dividendlar to'lanadigan paytda Kompaniyada to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) belgilari bo'lsa yoki dividendlar to'lash natijasida Kompaniyada shunday belgilar paydo bo'lsa;
- sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va zaxira fondlari summasidan kam bo'lsa va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

7.13. Kompaniya dividendlar miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi.

Egasi yoki uning qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo'ri tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra kompaniya ixtiyorida qoladi.

VIII. KOMPANIYANING ZAXIRA FONDINI VA BOSHQA FONDLARINI TASHKIL ETISH TARTIBI

8.1. Kompaniya sof foyda hisobidan zaxira fondini hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida aniqlanadigan, Kompaniya faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa jamg'armalarni tashkil etadi.

8.2. Kompaniyaning zaxira fondi ko'rilgan zararni qoplash, kompaniya obligatsiyalarini

muomaladan chiqarish qonunchilikka muvofiq aksiyalarni sotib olishni talab qilish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning talabiga binoan aksiyalarni sotib olish uchun mo'ljallanadi.

8.3. Kompaniya ustav kapitalining 15 foizi miqdorda Kompaniya zaxira fondi tuziladi.

8.4. Kompaniya zahira fondiga ushbu Ustavning 8.3-bandida belgilangan miqdorga etguniga qadar har yili sof foydaning 5 foizidan kam bo'lmagan miqdorda ajratmalar o'tkazadi.

8.5. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

8.6. Zaxira fondi to'raligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida, majburiy ajratmalardan tiklanadi.

8.7. Kompaniya sof aktivlarining qiymati buxgalteriya hisob-kitob ma'lumotlari bo'yicha belgilangan tartibda baholanadi.

IX. KOMPANIYANI BOSHQARISH ORGANLARI

9.1. Kompaniyani boshqarish organlari quyidagilardan iborat:

- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;
- Kuzatuv Kengashi;
- Ijroiya organi (Direktor).

X. KOMPANIYA AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG'ILISHI

10.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kompaniyani boshqarishning oliy organidir.

10.2. Kompaniya aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi har yili moliya yili tugaganidan keyin ko'pi bilan olti oy ichida o'tkaziladi.

10.3. Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig'ilishida Kompaniyaning Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasini saylash to'g'risidagi, yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi – kompaniya direktori bilan tuzilgan shartnomalarni amal qilish muddatini uzaytirish, shartnomani qayta tuzish yoki uni tugatish (bekor qilish) mumkinligi to'g'risidagi, auditorlik tekshiruvi o'tkazish haqida qaror qabul qilish to'g'risidagi masalalar, auditorlik tashkilotini va uning hizmatiga to'lanadigan haq miqdori chegarasini belgilash masalalari hal etiladi, shuningdek Kompaniyaning yillik hisoboti va boshqa hujjatlar ko'rib chiqiladi.

10.4. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilish hisoblanadi.

10.5. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana va uni o'tkazish tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallar (axborotlar) ro'yxatini kompaniyaning Kuzatuv kengashi belgilaydi.

10.6. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga quyidagilar kiradi:

a) kompaniya Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Kompaniyaning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

b) kompaniyani qayta tashkil etish;

v) kompaniyani tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

g) kompaniya Kuzatuv kengashining miqdor tarkibini belgilash, uning a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan oldin to'xtatish;

d) e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

e) ustav kapitalini kamaytirish;

j) o'z aksiyalarini sotib olish;

z) kompaniyaning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

i) kompaniya taftish komissiyasi a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

k) kompaniya yillik xisobotlarini, buxgalteriya balanslarini, foyda va zararlari hisob-varag'ini tasdiqlash, uning foyda va zararlari taqsimlash;

l) kompaniya Kuzatuv kengashining o'z vakolatiga kiradigan masalalarga doir, shu jumladan, kompaniyani boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishiga doir

hisobotlarini eshitish;

m) aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emmisiyaviy qimmatli qog'ozlarni sotib olishda aksiyadorning imtiyozli huquqini qo'llamaslik to'g'risida qaror qabul qilish;

n) umumiy yig'ilish reglamentini tasdiqlash;

o) aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

p) agar Kompaniya kuzatuv kengashining ikki va undan ortiq a'zosi affillangan shaxs bo'lsa, kompaniyaning affillangan shaxsi bilan tuziladigan bitim bo'yicha qaror qabul qilish;

r) bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada balans qiymati kompaniya sof aktivlari miqdorining 50 (ellik) foizidan ortiq mol-mulk xususida yirik bitim tuzish;

s) Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolariga mukofot va kompensasiya miqdorini belgilash;

t) amaldagi qonunchilik va mazkur Ustavda ko'zda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

10.7. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Kompaniyaning Kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, ushbu Ustavda ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun kompaniya ijroiya organiga berilishi mumkin emas.

10.8. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori, yig'ilishda ishtirok etayotgan Kompaniya ovoz beruvchi aksiyalari egasi bo'lmish aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, konunchilik va ustavda qaror qabul qilish uchun ovoz berish belgilangan hollar bundan mustasno.

10.9. Quyidagi masalalar bo'yicha umumiy yig'ilishda qatnashuvchilarning, ovoz beruvchi aksiyalarining egalari - aksiyadorlarning to'rtidan uch qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi:

kompaniya ustaviga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish yoki kompaniyaning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash;

kompaniyani qayta tashkil etish;

kompaniyani tugatish, tugatuvchini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

kompaniya Kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan kompaniya Kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining xulosalarini eshitish;

qonun xujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda kompaniyaning affillangan shaxsi bilan tuziladigan bitim bo'yicha qaror qabul qilish;

auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida, auditorlik tashkilotini va uning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini belgilash haqida qaror qabul qilish;

qonun xujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda yirik bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etish majburiyatini olish to'g'risida qaror qabul qilish va xabarni oshkor qilish shaklini tasdiqlash;

Kompaniyaning boshqaruv organlari to'g'risidagi, shu jumladan ichki nazorat, dividend siyosati to'g'risidagi, manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risidagi nizomlarini tasdiqlash;

har yili mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb qilgan holda biznes-jarayonlar va loyihalarning kompaniyaning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish;

elektron pochta orqali (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda), shuningdek, o'z vakolatini vakilga berish yo'li bilan ovoz berish yoki umumiy yig'ilishni videokonferens-aloqa tarzida o'tkazish tartibini belgilash (tasdiqlash).

10.10. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'z ishini amaldagi qonunchilik, ushbu ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiradi.

10.11. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartirishlar kiritishga haqli emas.

10.12. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari aksiyadorlar e'tiboriga etkaziladi, biroq bu muddat ana shu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan oshmasligi kerak.

10.13. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan Kompaniya aksiyadorlarining reestrída qayd etilgan aksiyadorlar ega.

10.14. Aksiyadorning talabiga binoan Jamiyat aksiyadorga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlari reestrída kiritilganligi to'g'risidagi axborotni taqdim etishi shart.

10.15. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 7 (yetti) kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan 30 (o'ttiz) kun oldin Kompaniyaning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

10.16. Kompaniya aksiyadorga bildirishnomani mustaqil ravishda yoxud Kompaniya va qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi o'rtasida tegishli xizmatlar ko'rsatilishi uchun tuziladigan shartnomaga muvofiq qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi orqali yuborishga haqli.

10.17. Kompaniya aksiyadorlariga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi bildirishnoma yig'ilish o'tkaziladigan sanadan 7 (yetti) kundan kechiktirmay yuboriladi.

10.18. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

kompaniyaning nomi va joylashgan eri (pochta manzili);

umumiy yig'ilish utkaziladigan sana, vaqt va joy;

kompaniya aksiyadorlari reestri tuziladigan sana;

umumiy yig'ilishning kun tartibiga kiritilgan masalalar;

umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni tanishtirish tartibi.

10.19. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotga (materiallarga) kompaniyaning yillik hisoboti, kompaniyaning yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan kompaniya Taftish komissiyasining va Auditorlik tashkilotining xulosasi, kompaniya Kuzatuv kengashi hamda taftish komissiyasi azoligiga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, Kompaniya ustaviga kiritiladigan o'zgartishlar va qo'shimchalar loyihasi yoxud kompaniyaning yangi tahrirdagi ustav loyihasi kiradi.

10.20. Kompaniya ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga ega bo'lgan Kompaniya aksiyadorlari (aksiyadori) Kompaniyaning moliya yili tugaganidan keyin uzog'i bilan 30 (o'ttiz) kun ichida aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Kompaniya Kuzatuv kengashi va Kompaniya taftish komissiyasiga bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli.

10.21. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masala uni qo'yish sabablarini, masalani taklif etayotgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) nomini, unga tegishli aksiyalarning soni va turini ko'rsatgan holda yozma ravishda kiritiladi.

10.22. Kompaniya Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga nomzodlar ko'rsatish, shu jumladan o'zining nomzodini ko'rsatish to'g'risida taklif kiritilganda nomzodning ismi, basharti nomzod Kompaniya aksiyadori bo'lsa, unga tegishli aksiyalarning soni va turi, shuningdek nomzodni ko'rsatgan aksiyadorlarning ismi, ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.

10.23. Aniq masala qo'yilishini aks ettirmaydigan ta'riflarning (shu jumladan, turli "masalalar", "boshqa masalalar", "o'zga masalalar" va hokazolarning) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

10.24. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 10 (o'n) kundan kam va 30 (o'ttiz) kundan ko'p etib belgilanishi mumkin emas.

10.25. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Kompaniya Kuzatuv kengashining qarori bilan uning o'z tashabbusiga binoan, Kompaniya taftish komissiyasi talabiga ko'ra, shuningdek talab taqdim etilgan sanada Kompaniyaning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida

5 (besh) foiziga ega bo'lgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi bilan o'tkaziladi.

10.26. Kompaniya taftish komissiyasining yoki Kompaniyaning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga ega bo'lgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabiga binoan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni Kompaniya Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish haqidagi yozma talab taqdim etilgan kundan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay amalga oshiradi.

10.27. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabda yig'ilish kun tartibiga kiritilishi kerak bo'lgan masalalar ularni kiritish sababini ko'rsatgan holda ta'riflab berilmog'i lozim.

10.28. Kompaniya Kuzatuv kengashi Kompaniya taftish komissiyasining yoki Kompaniyaning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga ega bo'lgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabiga binoan chaqiriladigan aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalarning ta'rifiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

10.29. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish talabi aksiyadordan (aksiyadorlardan) chiqqan taqdirda bu talabda umumiy yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) ismi (nomi), unga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

10.30. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish talabnomasi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanadi.

10.31. Kompaniya taftish komissiyasi yoki Kompaniyaning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga ega bo'lgan aksiyador (aksiyadorlar) navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida yozma talabnoma taqdim etgan sanadan boshlab 10 (o'n) kun ichida Kompaniya Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida yoki yig'ilishni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qiladi.

10.32. Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchilarni ro'yxatga olish tamom bo'lgan paytga kelib, Kompaniyaning tarqatilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 50 (ellik) foizidan ko'piga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorum to'plagan) hisoblanadi.

10.33. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning yangi umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning yangi umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibiga o'zgartishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

10.34. O'tkazilmay qolgan yig'ilish o'rniga aksiyadorlarning yangi chaqirilgan umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchilarni ro'yxatga olish tugagan paytga kelib, Kompaniyaning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 40 (qirq) foizdan ko'piga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatga olingan bo'lsa, bu umumiy yig'ilish vakolatli hisoblanadi.

10.35. Kvorum bo'lmaganligi sababli aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi 20 (yigirma) kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestriga muvofiq aniqlanadi.

10.36. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali amalga oshiriladi. Ovoz berish byulletenlarining shakli va matni Kompaniyaning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Ovoz berish byulleteni umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan aksiyadorga (uning vakiliga) beriladi.

10.37. Ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tuzilib, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

10.38. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqi shaxsan aksiyador tomonidan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi.

10.39. Aksiyador aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.

10.40. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma ishonchnoma asosida ish ko'radi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergan va vakil qilingan shaxslar

to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi yoki nomi, turar joyi yoki joylashgan manzili, pasport ma'lumotlari) aks ettirilgan bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan beriladigan ovoz berishga doir ishonchnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi.

10.41. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin kechi bilan 10 (o'n) kun ichida ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

10.42. Barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo'lsa, Kompaniyada aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilmaydi. Qonun va ustavga ko'ra aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma ravishda shakllantiriladi.

XI. KOMPANIYA KUZATUV KENGASHI

11.1. Kompaniya Kuzatuv kengashi Kompaniya faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga taalluqli masalalar bundan mustasno.

11.2. Kompaniya Kuzatuv kengashining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

kompaniya faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

kompaniya aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno

aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

kompaniya ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki uning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

kompaniya direktorining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

kompaniyaning ijroiya organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensasiyalar miqdorlarini belgilash, shuningdek, ko'rsatilgan to'lovlarning chegarasi miqdorini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi 207 - sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi qarori bilan belgilangan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlariga bog'lagan holda belgilash;

korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

kompaniyaning yillik biznes-rejasini tasdiqlash;

ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

kompaniya ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va kompaniya kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Kompaniya kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

kompaniyaning taftish komissiyasi a'zolariga (taftishchisiga) to'lanadigan haq va kompensasiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;

dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

kompaniyaning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

kompaniyaning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

kompaniyaning aksiyadorlik jamiyati yoki ma'suliyati cheklangan jamiyat shakldagi sho'ba va tobe korxonalarini tashkil etish;

kompaniyaning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

kompaniyaning korporativ obligasiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

kompaniyaning ustav kapitalini ko'paytirish, shuningdek kompaniya ustaviga kompaniyaning ustav kapitalini ko'paytirish hamda kompaniyaning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

kompaniya tomonidan korporativ obligasiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligasiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

kompaniyaning korporativ obligasiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensasiyalarning miqdorlarini belgilash;

emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

emissiya risolasini va qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorni tasdiqlash;

amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Kompaniya tomonidan joylashtirilgan aksiyalar, obligasiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

kompaniyaning ijroiya organi faoliyatiga daxldor har qanday hujjatdan erkin foydalanish va ijroiya organidan Kompaniya Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun ularni olish. Olingan hujjatlardan Kompaniya Kuzatuv kengashi va uning a'zolari faqat xizmat maqsadlarida foydalanishlari mumkin;

o'z vakolati doirasida mol-mulkni sotib olish va mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazish bilan bog'liq yirik bitimlar (balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada kompaniya sof aktivlari miqdorining 15 (o'n besh) foizidan 50 (ellik) foizgacha tashkil etadigan bitimlar yoki o'zaro bog'liq bir qancha bitimlar) tuzish (yirik bitim tuzish masalasida kompaniya Kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan hollarda yirik bitim tuzish to'g'risidagi masala kompaniya Kuzatuv kengashi qaroriga muvofiq Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi hukmiga havola etilishi mumkin);

qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda affillangan shaxslar ishtirokida bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

taftish komissiyasining kompaniyada affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonun hujjatlarining va kompaniya ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosasini har chorakda tinglab borish;

auditorlik tekshiruvini, shu jumladan xalqaro standartlarga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlarning xalqaro audit standartlariga muvofiq auditorlik tekshiruvidan o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilish;

homiylilik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) to'g'risida qarorlarni faqat aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan tartib va shartlar asosida, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan doirada, bu haqda barcha aksiyadorlar uchun ma'lumotlarni oshkor etgan tarzda qabul qilish;

kuzatuv kengashi qoshida kuzatuv kengashi, ijroiya organlari a'zolari, kompaniya xodimlari va jalb etilgan ekspertlar (tegishli soha mutaxassislari, soha oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari va boshqalar)dan iborat tegishli masalalar, shu jumladan, nizoli vaziyatlarni aniqlash va hal etish va boshqa masalalar bo'yicha qo'mitalar (ishchi guruhlar) tashkil etish;

ushbu Ustav va amaldagi qonunchilikka muvofiq kompaniya Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni hal etish.

11.3. Kompaniya Kuzatuv kengashi o'z ishini amaldagi qonunchilik, ushbu ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiradi.

11.4. Kompaniya Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Kompaniya Ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqlidir. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Kompaniya Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb

hisoblanadi.

11.5. Kompaniya Kuzatuv kengashining a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan bir yillik muddatga tayinlanadilar (saylanadilar). Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolarining soni 5 (beshi) kishidan iborat.

11.6. Kompaniya Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslarning qayta saylanishlari cheklanmaydi.

11.7. Kompaniya ijroiya organining a'zolari Kompaniya Kuzatuv kengashiga saylanishlari, tayinlanishlari mumkin emas.

11.8. Kompaniyada mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar kompaniya Kuzatuv kengashining a'zolari bo'lishi mumkin emas. Kompaniya Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan boshqa talablar aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlangan "Kompaniya Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizomi"da belgilab qo'yiladi.

11.9. Kompaniya Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi.

11.10. Kompaniya Kuzatuv kengashi raisi yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini Kuzatuv kengash a'zolaridan biri bajarib turadi.

11.11. Kompaniya kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashi raisining tashabbusiga ko'ra, kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi (taftishchisining), kompaniya direktorining talabiga ko'ra chaqiriladi. SHuningdek kompaniya Kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Zaruriyatga ko'ra kompaniya Kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlislari ham o'tkazilishi mumkin.

11.12. Kompaniya Kuzatuv kengashining qarori Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining kamida etmiş besh foizi ishtirok etganida qonuniy hisoblanadi. Kompaniya Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Kompaniya Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega. Kompaniya Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishga haqli emas. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan hollarda, Kompaniya Kuzatuv kengashi Raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

11.13. Kompaniya Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi va u majlis o'tkazilganidan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay tuziladi. Kompaniya Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlisning bayonnomasi to'g'riligi uchun javobgardir.

11.14. Kuzatuv kengashi va uning raisi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Kompaniya manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim. Ular qonun hujjatlariga va ushbu ustavga muvofiq Kompaniya va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.

Majlisda Kuzatuv kengashi a'zolari video va audio uskunalarini orqali konferensiya aloqasi bo'yicha ishtirok etishi mumkin, bunda ularning ovozlari qaror qabul qilish uchun sirtdan berilgan deb hisoblanmaydi.

XII. KOMPANIYANING IJROIYA ORGANI

12.1. Kompaniyaning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi -Direktor tomonidan amalga oshiriladi.

12.2. Direktor Kompaniyaning ijro etuvchi organi hisoblanib, uning kundalik faoliyatini boshqaradi va joriy rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, ushbu Ustav, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kompaniya Kuzatuv kengashining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.

12.3. Kompaniya Direktori aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kompaniya Kuzatuv kengashiga hisobdordir.

12.4. Kompaniyaning Direktori aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida tayinlanadi.

Direktor bilan mehnat shartnomasini kompaniya nomidan kompaniya Kuzatuv kengashi raisi imzolaydi.

12.5. Kompaniya Direktorining vakolatlariga kompaniyaning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga yoki

Kompaniya Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

12.6. Kompaniya Direktori aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kompaniya Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

12.7. Kompaniya Direktori mazkur ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Ijroiya organi to'g'risida"gi Nizom asosida ish olib boradi.

12.8. Kompaniya Direktorining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

mazkur Ustav va kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq Kompaniyaning ishiga rahbarlik qilish;

Kompaniyaning biznes-rejasini ishlab chiqish;

kompaniya faoliyatining asosiy yo'nalishlari loyihasini ishlab chiqish;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kompaniya Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish va ta'minlash;

amaldagi qonunchilikka muvofiq kompaniyada buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi, zarur holati va ishonchliligini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Kompaniya faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;

Kompaniyaning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash;

Kompaniya Kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etish;

Kompaniya nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, davlat muassasalari, barcha mulk shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarda uning manfaatlarini himoya qilish;

shtatlarni belgilash, kompaniya xodimlarini ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, va ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlash, ularni rag'batlantirish;

Kompaniya nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni berish;

Kompaniyaning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;

amaldagi qonun hujjatlariga hamda kompaniya ichki hujjatlariga rioya qilish;

"Ijroiya organi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq Direktor vakolatiga kiruvchi boshqa masalalar yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli qarorlar qabul qilish.

12.10. Kompaniya Direktori o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z burchlarini bajarishda kompaniya manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim.

12.11. Kompaniya Direktori qonun hujjatlariga va ushbu ustavga muvofiq kompaniya oldida javobgardir.

12.12. Kompaniya Direktoriga to'lanadigan haq va (yoki) kompensasiyalar miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi 207 - sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi qarori bilan belgilangan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlariga bog'lagan holda belgilanadi.

XIII. KOMPANIYANING MOLIYA-XO'JALIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

a) Taftish komissiyasi

13.1. Kompaniyaning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish uchun aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi taftish komissiyasini 1 (bir) yil muddatga saylaydi. Kompaniya taftish komissiyasi 3 (uch) kishidan iborat.

13.2. Kompaniyaning taftishchisiga yoki taftish komissiyasi a'zolariga doir malaka talablari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi. Ayni bir shaxs ayni bir kompaniyaning taftish komissiyasi tarkibiga (taftishchilikka) ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

13.3. Kompaniya taftish komissiyasining (taftishchisining) vakolat doirasi ushbu Qonun va kompaniya ustavi bilan belgilanadi.

Kompaniya taftish komissiyasining (taftishchisining) faoliyat ko'rsatish tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan nizomda belgilanadi.

13.4. Kompaniya taftish komissiyasining (taftishchisining) yozma talabiga ko'ra kompaniya ijroiya organida mansabni egallab turgan shaxslar kompaniyaning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni taftish komissiyasiga (taftishchiga) taqdim etishi shart.

13.5. Kompaniya taftishchisi yoki taftish komissiyasining a'zolari bir vaqtning o'zida kompaniya kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishi, shuningdek ayni shu kompaniyada mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlashi mumkin emas.

13.6. Kompaniyaning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish taftish komissiyasining (taftishchining), aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, kompaniya kuzatuv kengashining tashabbusiga ko'ra yoki kompaniya ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra kompaniya kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi.

13.7. Kompaniyaning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra kompaniyaning taftish komissiyasi (taftishchisi) xulosa tuzadi, bu xulosada:

kompaniyaning hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga doir baho;

buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risidagi axborot ko'rsatilishi shart.

13.8. Taftish komissiyasi (taftishchi) kompaniyada affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonun hujjatlarining va kompaniya ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosani har chorakda kompaniya kuzatuv kengashining majlisiga olib chiqadi. Ushbu ustavning 13.7-bandida ko'rsatilgan axborotni o'z ichiga olgan xulosa aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida eshutiladi.

b) Ichki audit xizmati

13.9. Kompaniya aktivlarining balans qiymati eng kam ish haqi miqdorining yuz ming barobaridan ko'p bo'lgan taqdirda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati kompaniyaning Kuzatuv kengashiga hisobdordir.

13.10. Ichki audit xizmati kompaniyaning ijroiya organi, vakolatxonalar va filiallari tomonidan qonun hujjatlariga, ta'sis hujjatlari va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda to'g'ri aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek kompaniyani boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish va bu borada monitoring olib borish orqali kompaniyaning ijroiya organi, vakolatxonalar va filiallari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

13.11. Ichki audit xizmati o'z faoliyatini qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

v) Auditorlik tashkiloti (tashqi auditor)

13.12. Auditorlik tashkiloti kompaniya bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kompaniyaning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshiradi va unga auditorlik xulosasi takdim etadi.

13.13. Auditorlik tashkiloti kompaniyaning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborotlar haqida noto'g'ri yakun bayon etilgan auditorlik xulosasi tuzganlik oqibatida etkazilgan zarar uchun kompaniya oldida javobgar bo'ladi.

g) Korporativ maslahatchi

13.14. Kompaniyada kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lgan va korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaruvchi kompaniya korporativ maslahatchisi lavozimini joriy etish mumkin.

13.15. Kompaniya korporativ maslahatchisining faoliyati kompaniya kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi.

XIV. KOMPANIYANING YILLIK HISOBOTLARNI TUZISH, TEKSHIRISH VA TASDIQLASH TARTIBI

14.1. Kompaniya qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisob-kitobini yuritishi va moliya hisobotini takdim etishi shart.

14.2. Kompaniyada buxgalteriya hisob-kitobini tashkil etish, uning holati va to'g'ri yuritilishi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliya hisobotlari, shuningdek aksiyadorlar, kreditorlar va ommaviy axborot vositalariga kompaniya faoliyatiga doir ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik qonun hujjatlariga muvofiq kompaniya Direktori zimmasida bo'ladi.

14.3. Kompaniyaning aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga taqdim etadigan yillik hisobotidagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag'idagi ma'lumotlarning to'g'ri ekanligi kompaniyaning taftish komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

14.4. Ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni matbuotda e'lon qilishdan oldin kompaniya yillik moliya hisobotini har yilgi tekshirish va tasdiqlash uchun kompaniya yoki aksiyadorlar bilan mulkiy manfaatlar negizida bog'liq bo'lmagan auditorlik tashkilotini jalb etishi shart.

14.5. Kompaniyaning yillik hisoboti aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 30 kun oldin Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.

14.6. Kompaniyaning moliya yili 1 yanvardan boshlanadi va 31 dekabrda tugaydi.

XV. KOMPANIYANI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

a) Kompaniyani qayta tashkil etish tartibi

15.1. Kompaniyani qayta tashkil etish (jumladan: qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish va qayta tuzish) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori asosida, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

15.2. Qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran Kompaniya 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay o'z kreditorlarini bu haqda yozma ravishda xabardor etadi. Kreditor Kompaniyadan majburiyatlarni to'xtatish yoki muddatidan ilgari bajarishni hamda zararining o'rni qoplashni quyidagi muddatlarda yozma ravishda xabar berish yo'li bilan talab qilishga haqlidir:

qo'shib yuborish, birlashtirish yoki qayta tuzish tarzida qayta tashkil etish haqidagi xabarni Kompaniya kreditorga yuborgan sanadan boshlab uzog'i bilan 30 (o'ttiz) kun ichida;

bo'lish yoki ajratib chiqarish tarzida qayta tashkil etish to'g'risidagi xabarni Kompaniya kreditorga yuborgan sanadan boshlab uzog'i bilan 60 (oltmish) kun ichida.

Agar bo'linish balansi qayta tashkil etilayotgan Kompaniyaning huquqiy vorisini aniqlash imkonini bermasa, yangi vujudga kelgan yuridik shaxslar qayta tashkil etilgan Kompaniyaning majburiyatlari yuzasidan uning kreditorlari oldida solidar javobgar bo'ladilar.

15.3. O'z faoliyatini tugatgan ikki yoki bir necha jamiyatning barcha huquqlari va majburiyatlarini o'tkazish yo'li bilan yangi jamiyatni vujudga keltirish jamiyatlarning qo'shib yuborilishi deb hisoblanadi.

Kompaniya qo'shib yuborish tarzida qayta tashkil etilgan taqdirda Kompaniya qo'shib yuborish haqida shartnoma tuzadi, unda qo'shib yuborish tartibi va shartlari, shuningdek har bir jamiyat aksiyalarini yangi jamiyatning aksiyalariga va (yoki) boshqa qimmatli qog'ozlariga ayirboshlash tartibi belgilab qo'yiladi. Kompaniyaning Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hukmiga qo'shib yuborish tarzida qayta tashkil etish to'g'risidagi, qo'shib yuborish shartnomasini tasdiqlash haqidagi va o'tkazish dalolatnomasini tasdiqlash haqidagi masalalarni havola etadi.

Yangi vujudga kelayotgan jamiyat ustavini tasdiqlash va Kuzatuv kengashini saylash qo'shib yuborishda ishtirok etayotgan jamiyatlar aksiyadorlarining qo'shma umumiy yig'ilishida amalga oshiriladi. Aksiyadorlarning qo'shma umumiy yig'ilishida ovoz berish tartibi jamiyatlarning qo'shib yuborilishi to'g'risidagi shartnomada belgilab qo'yilishi mumkin.

Jamiyatlar qo'shilgan taqdirda ularning har biriga tegishli barcha huquqlar va majburiyatlar o'tkazish dalolatnomasiga muvofiq yangi vujudga kelgan jamiyatga o'tadi.

15.4. Bir yoki bir nechta jamiyat faoliyatini to'xtatib, ularning huquqlari va majburiyatlarini boshqa jamiyatga o'tkazish - jamiyatni birlashtirish hisoblanadi.

Birlashtirilayotgan jamiyat va birlashtirib olayotgan jamiyat birlashish to'g'risida shartnoma tuzadilar, unda birlashishning tartibi va shartlari, shuningdek birlashtirilayotgan jamiyatning aksiyalarini birlashtirib olayotgan jamiyatning aksiyalari va (yoki) boshqa qimmatli qog'ozlariga ayirboshlash tartibi belgilab qo'yiladi. Har bir jamiyatning Kuzatuv kengashi birlashishda ishtirok etayotgan o'z jamiyatining umumiy yig'ilishi hukmiga birlashish tarzida qayta tashkil etish to'g'risidagi va birlashish shartnomasini tasdiqlash haqidagi masalani kiritadi. Birlashtirilayotgan jamiyat Kuzatuv kengashi o'tkazish dalolatnomasini tasdiqlash to'g'risidagi masalani ham aksiyadorlar umumiy yig'ilishi hukmiga havola etadi.

Mazkur jamiyatlar aksiyadorlarining qo'shma umumiy yig'ilishi ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi. Aksiyadorlarning qo'shma umumiy yig'ilishida ovoz berish tartibi birlashish to'g'risidagi shartnomada belgilab qo'yiladi.

Jamiyat boshqa jamiyatga birlashganda o'tkazish dalolatnomasiga muvofiq birlashtirilayotgan jamiyatning barcha huquq va majburiyatlari qo'shib olgan jamiyatga o'tadi.

15.5. Kompaniya faoliyatini to'xtatib, uning huquqlari va majburiyatlarini yangi tuzilayotgan jamiyatlarga o'tkazish — Kompaniyani bo'lish hisoblanadi.

Bo'lish tarzida qayta tashkil etilayotgan Kompaniyaning Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hukmiga bo'lish tarzida Kompaniyani qayta tashkil etish to'g'risidagi, bu qayta tashkil etishning tartibi va shartlari xususidagi, yangi jamiyatlar tuzish hamda qayta tashkil etilayotgan Kompaniya aksiyalarini tuzilayotgan jamiyatlar aksiyalariga va (yoki) boshqa qimmatli qog'ozlariga ayirboshlash tartibi to'g'risidagi masalalarni havola etadi.

Bo'lish tarzida qayta tashkil etilayotgan Kompaniya aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi Kompaniyani bo'lish tarzida qayta tashkil etish to'g'risida, yangi jamiyatlar tuzish hamda qayta tashkil etilayotgan Kompaniya aksiyalarini tuzilayotgan jamiyatlarning aksiyalari va (yoki) boshqa qimmatli qog'ozlariga ayirboshlash tartibi to'g'risida qaror qabul qiladi. Yangi tuzilayotgan xar bir jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi uning ustavini tasdiqlash hamda Kuzatuv kengashini saylash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Kompaniya bo'linganda uning barcha huquq va majburiyatlari bo'lish balansiga muvofiq yangi tashkil etilayotgan ikki yoki bir necha jamiyatga o'tadi.

15.6. Qayta tashkil etilayotgan Kompaniyaning faoliyatini to'xtatmagan holda, uning huquqlari va majburiyatlarining bir qismini o'tkazib bir yoki bir nechta jamiyat tuzish Kompaniyani ajratib chiqarish deb hisoblanadi.

Ajratib chiqarish tarzida qayta tashkil etilayotgan Kompaniyaning Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hukmiga ajratib chiqarish tarzida Kompaniyani qayta tashkil etish, ajratib chiqarishni amalga oshirishning tartibi va shartlari, yangi jamiyatni tuzish, ajralib chiqayotgan jamiyatning aksiya va (yoki) boshqa qimmatli qog'ozlarini ayirboshlash imkoniyatlari va bunday ayirboshlash tartibi, bo'lish balansini tasdiqlash to'g'risidagi masalani havola etadi.

Ajratib chiqarish tarzida qayta tashkil etilayotgan Kompaniya aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi Kompaniyani ajratib chiqarish tarzida qayta tashkil etish, ajratib chiqarishning tartibi va shartlari, yangi jamiyatni tuzish, Kompaniyaning aksiyalarini ajralib chiqayotgan jamiyatning aksiyalariga va (yoki) boshqa qimmatli qog'ozlariga ayirboshlash imkoniyatlari va bunday ayirboshlashni o'tkazish tartibi, bo'lish balansini tasdiqlash haqida qaror qabul qiladi.

Kompaniya tarkibidan bir yoki bir nechta jamiyat ajralib chiqqanda ajratib chiqarish tarzida qayta tashkil etilgan Kompaniya huquqlari va majburiyatlarining bir qismi bo'lish balansiga muvofiq ularning har biriga o'tadi.

15.7. Kompaniya qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etgan holda boshqa har qanday xo'jalik jamiyati yoki shirkatiga aylanishga haqli.

Kompaniya qayta tuzilayotganda Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hukmiga Kompaniyani qayta tuzish, qayta tuzishni amalga oshirish tartibi va shartlari haqidagi masalalarni havola etadi.

Kompaniya aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qayta tuzish to'g'risida, qayta tuzishni amalga oshirishning tartibi va shartlari haqida qaror qabul qiladi. Qayta tuzish jarayonida vujudga keltirilayotgan yangi yuridik shaxsning qatnashchilari o'zlarining qo'shma majlislarida uning ta'sis hujjatlarini tasdiqlash hamda qonun hujjatlarining talablariga muvofiq boshqaruv organlarini saylash (tayinlash) to'g'risida qaror qabul qiladilar.

Kompaniya qayta tuzilganida Kompaniyaning barcha huquq va majburiyatlari o'tkazish dalolatnomasiga muvofiq yangi vujudga kelgan yuridik shaxsga o'tadi.

b) Kompaniyani tugatish tartibi

15.8. Kompaniyani tugatish uning huquq va majburiyatlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tmagan holda Kompaniya faoliyatining to'xtatilishiga olib keladi.

15.9. Kompaniya quyidagi hollarda tugatiladi:

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq;
- qonun hujjatlariga muvofiq sud qaroriga asosan;
- qonun hujjatlariga belgilangan boshqa hollarda.

15.10. Kompaniya ixtiyoriy ravishda tugatilgan taqdirda, Kuzatuv kengashi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi hukmiga Kompaniyani tugatish va tugatuvchini tayinlash to'g'risidagi masalani havola etadi. Kompaniya aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tugatish to'g'risida va tugatuvchini tayinlash haqida qaror qabul qiladi.

15.11. Kompaniya sudning qarori bilan tugatilganda tugatuvchini tayinlash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

15.12. Tugatuvchi tayinlangan paytdan e'tiboran Kompaniya ishlarini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlar tugatuvchiga o'tadi. Tugatuvchi Kompaniya nomidan sudda ishtirok etadi.

15.13. Tugatuvchi:

- tegishli matbuot organida Kompaniyaning tugatilishi, uning kreditorlarining talab qo'yish tartibi va muddatlari to'g'risida xabar e'lon qiladi. Kreditorlarning talab qo'yish muddati Kompaniya tugatilishi to'g'risida xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran 2 (ikki) oydan kam bo'lmasligi lozim;
- kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzlarni olish chora-tadbirlarini ko'radi, shuningdek kreditorlarni Kompaniyaning tugatilishi to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi.

15.14. Kreditorlar tomonidan talablarni qo'yish uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin tugatuvchi oraliq tugatish balansini tuzadi. Mazkur balansda tugatilayotgan Kompaniya mol-mulkining tarkibi, kreditorlar qo'ygan talablar, shuningdek ularni ko'rib chiqish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar bo'ladi.

Oraliq tugatish balansini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

15.15. Agar Kompaniyaning mavjud pul mablag'lari kreditorlarning talablarini qondirish uchun etarli bo'lmasa, Tugatuvchi Kompaniyaning boshqa mol-mulkini sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda kim oshdi savdosida sotishni amalga oshiradi.

15.16. Tugatilayotgan Kompaniya kreditorlariga pul summalarini to'lash Tugatuvchi tomonidan oraliq tutatish balansiga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida mazkur balans tasdiqlangan kundan e'tiboran amalga oshiriladi.

15.17. Kreditorlar bilan hisob-kitob qilib bo'linganidan keyin Tugatuvchi tugatish balansini tuzadi, tugatish balansini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

15.18. Kreditorlar bilan hisob-kitob qilib bo'linganidan keyin Kompaniyaning qolgan mol-mulki tugatuvchi tomonidan aksiyadorlar o'rtasida qonun hujjatlarida belgilangan navbat bo'yicha taqsimlanadi.

15.19. Mol-mulki har bir navbat tartibi bo'yicha taqsimlash avvalgi navbat tartibi bo'yicha mol-mulk to'liq taqsimlab bo'linganidan keyin amalga oshiriladi.

15.20. Davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga tegishli yozuvlarni kiritgan paytdan e'tiboran Kompaniyani tugatish tamomlangan, Kompaniya esa faoliyatini tugatgan hisoblanadi.

Yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan Kompaniya tugatilganligi haqidagi tegishli yozuvni Kompaniya qimmatli qog'ozlari chiqarilishlarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi bekor qilinganidan keyingina kiritiladi.

15.21. Tugatuvchi noqonuniy yoki atayin noto'g'ri qilingan harakatlar (harakatsizlik) natijasida Kompaniyaga keltirilgan zarar uchun javobgardir.

XVI. YAKUNIY QOIDALAR

16.1. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar aksiyadorlarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi.

16.2. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

16.3. Mazkur Ustav O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

16.4. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan masalalar, qonunda boshqa hollar nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Ustavga muvofiq tartibga solinadi.

“O'zMED-lizing” ILK AJ direktori

M.Raximov